

PARRANDALAR KOLIBAKTERIOZ KASALLIGINING EPIZOOTIYASIGA QARSHI TADBIRLAR

**Jarilkaganova Gulziyra Jalgasbaevna- SamDVMSBU Nókis filiali
magistranti,**

**Abatbaeva Aygul Muratbaevna- SamDVMSBU Nókis filiali
magistranti,**

**Kamalova Aynura Ilalatdinovna - SamDVMSBU Nókis filiali
assistenti veterinariya pa'nlari filosofiya doktori (PhD), ilimiy basshi.**

Annotatsiya : Maqolada parrandalar orasidagi uchraydigan, parrandachilik xojaliklarida yetarlicha ziyon yetkizadigan infekcion yuqumli kasallik Kolibakterioz, uning epizootiyasiga qarshi tadbirlar haqqida ilimiy adabiyot malumotlari asosida tushunchalar keltirilgan.

Summary: The article provides concepts based on scientific literature data about colibacillosis, an infectious disease among poultry that causes considerable damage in poultry farms, and measures against its epizootics.

Kalit sozlar: kolibakterioz, infekciya, parranda, bakteriya, serologik, bakteriologik, agglyutinaciya.

Keywords: colibacillosis, infection, poultry, bacteria, serological, bacteriological, agglutination.

Kirish: Infekcion kasalliklar epizootiyasiga qarshi kurashish va oldini olish parrandachilikni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asoslaridan biri hisoblanadi. Bunda muammoning ikki asosiy jihatini etiborga olish lozim: parrandachilik xo'jaligida infekcion kasalliklari epizootiyalaridan saqlash va parrandalar infekcion kasalliklari profilaktikasi buyicha kompleks ishlar olib borish.

Parrandalarning infekcion kasalliklarini majmuaviy va keng ko'lamli profilaktika qilish veterinariya fani va amaliyoti hamda veterinariya biologik sanoatning uzviy birgalikda ishlashiga bog'liq. Bir tomondan, bu yuqori samarali diagnostikumlarni, vakcinalar, davolovchi zardoblar va preparatlarni yaratish hamda joriy etish ishlari bo'lsa, ikkinchi tomondan zoogigienik va veterinariya-sanitariya hamda epizootiyaga qarshi tadbirlarini o'tkazishdir. Shu jihatdan parrandalarning kolibakterioz kasalligi va doimiy ravishda monitoring qilib boriladigan infekcion kasalliklar qatoriga kiradi. Kolibakterioz kasalligida barcha solmonellalar kabi kolibakterioz qo'zg'atuvchisi ham insonlar uchun potencial havfli ekanligi etibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Kolibakterioz-parrandalarning bakteriyal kasalligi bo'lib u parrandalarda septicemiya, hazm qilish traktining va nafas olish tizimi a'zolarining

jarohatlanishi, hamma yoshdagi parrandalar organizmida kasallik keshishining xarakterli taraflaridan biri yashirin turda sozilmali o'tishi bilan ifodalanadi. Sanaot parrandachiligida suniy inkubაციyaning joriy etilishi kolibakteriozning keng tarqalishiga olib keladi. Kolibakterioz parrandachilik rivojlangan barcha mamlakatlarda uchraydi va katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Rossiyaning bazi parrandachilik xojaliklarida kolibakteriozga musbat natija beruvchi parrandalar miqdori 1,5-5,0% ni tashkil etadi. Kolibakterioz qo'zg'atuvchisi parranda axlatida 100 kungacha saqlanishi mumkin. Jo'jalar olimi 50-90%, embrionlar olimi 70-80% bolishi mumkin.

Kolibakterioz ikki xil yol bilan kelib chiqishi mumkin: kontental (yosh parrandalar zararlangan tuqumlardan chiqadi) va postnatal (sog'lom jo'jalar malumotlar va 5-10 ta jo'jalar o'limini bakteriologik tekshirish va ulardan Salmonella kolibakterium ning toza kulturasini ajratish hamda ularni tipospesifik zardoblar bilan AP quyish yoli bilan identifikaciya qilish orqali yakuniy tashxis qoyiladi. Parrandalarga hayotligi vaqti tashxis qoyish va ayniqsa ommaviy tekshirishlarda esa oynada qon tomchili bilvosita agglyutinaciya reakciyasi natijalariga asosan tashxis qoyiladi. Kolibakterioz bilan kasallangan parrandalar yoq qilinadi. Shartli sog'lom parrandalar biomicin, terramicin, polimacchin-M va biovit, vitabiomicin, furazalidon kabilar berib davolanadi.

Profilaktika. Yosh hayvonlarning meda-ichak kasalliklari asosan, sanitariya holati past, toyimli balansli oziqalar bilan oziqlantirish yolg'a qoyilmagan fermalarda uchraydi. Shu sababli bu yerda asosiy masala shu faktorlarni yoq qilish bilan birga hayvon organizmining rezistentligini oshirishdan iborat hisoblanadi. Bu chora hayvonlar bug'ozlik davridan boshlanishi kerak. Vitaminli ozuqalar, mikro va makro elementlarga boy racionni tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yosh hayvonlarga ABK, PABK oshqozon shiralarini berib borish organizm rezistentligini oshradigan taqdirlardan hisoblanadi. Fermalarning sanitariya ahvoli va amaldagi dezinfekciya o'tkazib turish yosh hayvonlar oshqozon-ichak kasalliklarning oldini olishda asosiy faktorlardan hisoblanadi.

Nosog'lom xojaliklarda kamiga oyiga bir marta 30 ta olik embrionlar kolibakterioz qozg'atuvchisiga bakterial tekshiriladi. Yoshi katta naslli parrandalar va naslli tudani toldiruvchi barcha yosh parrandalar serologik (QTAR) tekshiriladi. Serologik rekciyada musbat natija olingan parrandalar izolyaciya qilinadi.

Kolibakterioz tashxisi tasdiqlangan parrandachilik xojaliklari nosog'lom deb elon qilinadi va chegaralash qoyiladi. Serologik tekshirishda musbat natija olingan parrandalar tuqumini chiqarish va nosog'lom parrandaxonalardan tuqumni inkubaciya uchun olib chiqish qatiyan man etiladi.

Yosh parrandalarda musbat natija olingan holatlarda ushbu nosog'lom parrandaxonaning barcha parrandalari semirtirilguncha boqiladi va goshtga so'yiladi.

Kolibakteriozni bartaraf qilish boyicha tashkiliy-xo'jalik, veterinariya-sanitariya va epizootiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilgach, parrandalarda klinik va patologoanatomik belgilar aniqlanmagach va bakteriologik tekshiruvlarda manfiy natija olingach xojalikdan chegaralash olib tashlanadi. Kasallanib tuzalgan parrandalarda nosteril immunitet hosil bo'ladi. Kolibakteriozga qarshi maxsus profilaktika vositalari amaliyotga joriy etilmagan.

Kolibakteriozning xo'jalikka kirib kelishining oldini olish uchun inkubaciya uchun tuqumlarni sog'lom tovuqlardan olish, o'stirish uchun faqat sog'lom jo'jalarni qoldirish, yosh parrandalarni saqlash va oziqlantirish rejimlariga rioya qilish lozim. Jo'jalar hayotining dastlabki kunlaridanoq probiotiklar qo'shilgan (galliform, bifidol, bifidobakterin, subalin kabilar) tuloqonli kombikorm bilan oziqlantiriladi. Jo'jalarni Yoshi katta parrandalardan aloxida maydonchalarda o'stirish lozim. Kolibakterioz bilan kasallangan jo'jalar va tovuqlarni davolash uchun furazalidon, furidin, kompleks preparatlardan kolmik-E, kolimicin, avidoks kabilar tavsiya etiladi.

Bakteriya tashuvchanlik aniqlanganda (1% dan ziyod parrandalar serologic tekshirishda musbat natija bergan holat) xo'jalik kolibakterioz buyicha nasog'lom deb e'lon qilinadi va chegaralash quyiladi. Bunda quyidagilar taqiqlanadi:

1. Inkubacion tuqumlarni boshqa xo'jaliklar parrandalar tudasini to'ldirish uchun olib chiqish;
2. Serologik tekshirishda musbat natija kotsatgan parrandalar tuqumini sotish uchun olib chiqish;
3. Xo'jalik ichida nosog'lom parrandaxonalar tuqumini inkubaciyaga qo'yish:

Nosog'lom xojaliklarda quyidagilar ruxsat etiladi:

1. Infekcion kasalliklardan sog'lom xo'jaliklardan inkubacion tuqumlarni va 1 kunlik jo'jalarni olib kelish;
2. Sog'lom parrandalardan olingan tuqumlarni xo'jalik ichida foydalanish uchun inkubaciyaga qo'yish;
3. Serologik tekshirishlarda ma'nfiiy natija olingan parrandalar tuqumini sotish uchun chiqarish.

Kasal yoki musbat natija olingan parrandalar tuqumi yuqori xaroratda tayyorlanadigan konditer va non maxsulotlarini tayyorlashda foydalanish uchun jo'natiladi.

Insonlarni himoya qilish buyicha choralar: kolibakterioz qozgatushchisi insonlarda toksikoinfekciya chiqarishi mumkin bolgani uchun parrandalar bilan ishlash va parrandalar maxsulotlarini iste'mol qilishda sanitariya-gigiena tartib-qoidalariga rioya qilish lozim.

Xulosa: Tovuqlar orasida kolibakterioz kasalligining keng tarqalishi, shu bilan bir qatorda bu yuqumli kasallikning barcha yoshdagi tovuqlarda uchrashi parrandachilik sohasiga katta iqtisodiy zarar yetkazib go'sht, go'sht-tuxum mahsuldorligini oshirishda to'siq bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda maqolada tovuqlarning kolibakterioz kasalligining epizootiyasiga qarshi kurashish tadbirlari haqida bayon etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.А.Ф. Кузнецов (составитель) «Справочник ветеринарного врача». Издательство «Лань». 2004 г. С. 727-728.
- 2.Б.Ф. Бессарабов, А.А. Вашутин, Е.С. Воронин и др. «Инфекционные болезни животных». Москва. Колос С, 2007. С 596-599.
- 3.Тезисы докладов. К всесоюзной научно-производственной конференции «Комплексная система ветеринарных мероприятий в птицеводстве-резерв повышения эффективности производства». Сентябрь-1989 г. Ленинград-1989
- 4.N. Dauletbaev; U. Shakilov. CHANGES IN POSTNATAL ONTOGENESIS OF TURKEYS. Res. Jou. Ana.Inv. 2024, 5, 1-4.
- 5.Авезимбетов, Ш. Д., Кушимматов, Ж. Б., & Рахимов, Х. М. (2024). РОНКОЛЕЙКИННИ ФАСЦИОЛЁЗДА ҚЎЛЛАШ УСУЛЛАРИ ВА НАТИЖАЛАРИ. *Научный Импульс*, 2(24), 115-118.
- 6.Курбаниязова, Г., Авезимбетов, Ш., Хожамуратова, А., & Рахимов, Х. (2024). ҚОРАМОЛЛАРДА САНТОМЕКТИННИ ҚЎЛЛАНИЛГАНДА ҚОНДАГИ ГЕМАТОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР. *Научный Импульс*, 2(24), 108-144.